



## O'ZBEK TILIDA ANTROPOMORFIK METAFORANING SOTSIOLINGVISTIK TABIATI

**Safoyeva Shodiya Ma'ruf qizi**

*Navoiy davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi*

**Ilmiy rabar: Z.Xolmanova** - Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti, o'zbek tilshunosligi kafedrasini mudirasi, f.f.d.prof.  
[dilshodovayasina2023@gmail.com](mailto:dilshodovayasina2023@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.16831772>

**Annotatsiya.** Insoniyat tarixida til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik muhim o'rin tutadi. Til inson fikrining ifodasi va muloqot vositasi bo'lib, uning rivojlanishi va shakllanishi jamiyatning madaniy, ijtimoiy va tarixiy kontekstlariga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, metafora tilshunoslik va sotsiolingvistika sohalarining qiziqish doirasida o'rganiladigan muhim mavzulardan biridir. Ayniqsa, antropomorfik metafora – insoniy xususiyatlarni yoki inson shaklini boshqa ob'ekt, hayvon yoki tushuncha bilan bog'lash jarayoni – til va madaniyatda keng qo'llaniladigan, o'ziga xos usul bo'lib, insonlarning dunyoni tushunishi va tafakkur qilishida muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** metafora, antropomorf, konsept, yosh omili, jins omili, metafora turlari, mifologiya, diniy qarash.

**Аннотация.** Взаимосвязь языка и культуры играла важную роль в истории человечества. Язык – это выражение человеческой мысли и средство общения, а его развитие и формирование зависят от культурного, социального и исторического контекста общества. С этой точки зрения, метафора – одна из важных тем, изучаемых в рамках лингвистики и социолингвистики. В частности, антропоморфная метафора – процесс ассоциации человеческих характеристик или внешнего вида с другим объектом, животным или понятием – представляет собой уникальный метод, широко используемый в языке и культуре, играющий важную роль в понимании и осмыслении мира людьми.

**Ключевые слова:** метафора, антропоморф, концепт, возрастной фактор, гендерный фактор, типы метафоры, мифология, религиозные воззрения.

**Annotation:** The relationship between language and culture has played an important role in the history of mankind. Language is an expression of human thought and a means of communication, and its development and formation depend on the cultural, social and historical contexts of society. From this perspective, metaphor is one of the important topics studied within the scope of interest of the fields of linguistics and sociolinguistics. In particular, anthropomorphic metaphor - the process of associating human characteristics or the human form with another object, animal or concept - is a unique method widely used in language and culture, playing an important role in people's understanding and thinking about the world.

**Key words:** metaphor, anthropomorph, concept, age factor, gender factor, types of metaphor, mythology, religious view.

### KIRISH VA DOLZARBLIGI

Til inson fikrining ifodasi va muloqot vositasi bo'lib, uning rivojlanishi va shakllanishi jamiyatning madaniy, ijtimoiy va tarixiy kontekstlariga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, metafora tilshunoslik va sotsiolingvistika sohalarining qiziqish doirasida o'rganiladigan muhim mavzulardan biridir.



Antropomorfik metafora tushunchasi va uning umumiy xususiyatlari. Antropomorfik metafora — bu noinsoniy obyekt, hodisa yoki tushunchaga insoniy sifatlar, holatlar yoki xatti-harakatlarni berish orqali ma'no ifodalovchi til birligi hisoblanadi. Bu metafora tili obrazli, jonli va ta'sirchan qiladi. Masalan, „Quyosh kulib turibdi” yoki „Bahor quchog‘ini ochdi” kabi ifodalar orqali tabiat hodisalariga insoniy fe'l-atvor yuklanadi. Antropomorfizm ibtidoiy tafakkurdan boshlangan bo‘lib, mifologiya, folklor va diniy matnlarda keng tarqalgan. Uning metaforik shakli esa adabiy til va kundalik nutqda estetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Antropomorfizm (grekcha: ανθρωπος — „odam“ va grekcha: μορφή — „shakl“) yoki shaxslashtirish deb odam bo‘lmagan mavjudot, hodisa yoki mavhum narsalarni odamsimon yoki odam xulqiga ega qilib tasvirlashga aytiladi. Masalan, antropomorfik asar va qarashlarda shamol, yomg‘ir kabi tabiat hodisalari, xudo yoki vatan kabi mavhum konsepsiyalar odam kabi fikrlab, suhbatlashadi. Atama XVII asrda kiritilgan. Ayniqsa, antropomorfik metafora – insoniy xususiyatlarni yoki inson shaklini boshqa ob‘ekt, hayvon yoki tushuncha bilan bog‘lash jarayoni – til va madaniyatda keng qo‘llaniladigan, o‘ziga xos usul bo‘lib, insonlarning dunyoni tushunishi va tafakkur qilishida muhim rol o‘ynaydi. Bu turdagi metaforalar yordamida insonlar o‘zining kundalik hayotdagi muomala, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashadi. O‘zbek tilida esa, antropomorfik metaforalar asrlar davomida shakllanib, milliy va madaniy kontekstga moslashgan holda, o‘ziga xos xususiyatlar kasb etgan. Ular insonlar dunyoni qanday tushunishi, tafakkur qilish usullari va madaniyatning ifodali shakllarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan, antropomorfik metafora ijtimoiy munosabatlar, gender, avlodlararo farqlar, madaniyatlararo muloqot va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy rollar va madaniy normalarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Mavzuning dolzarbligi shundaki, u til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi, shuningdek, tilshunoslik va sotsiologiya sohalarining integratsiyasini rivojlantiradi. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar antropomorfik metaforaning milliy xususiyatlarini, ularning ijtimoiy-ma’naviy kontekstdagi o‘rnini va ta’sirini yanada kengroq tushunishga yordam bermoqda. Bu boradagi tadqiqotlar, ayniqsa, metaforaning milliy va madaniy xususiyatlari, kundalik til va adabiyotda qo‘llanilishi, shuningdek, ijtimoiy muhitda ifodalanishi masalalarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda statistik ma’lumotlar, madaniy kontekstlar va misollar yordamida antropomorfik metaforaning o‘ziga xosligi va ularning jamiyat hayotidagi o‘rnini chuqurlashtirish maqsad qilinmoqda. Bu ilmiy izlanishlar til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni yoritishga xizmat qiladigan yangi nazariy va



amaliy imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuningdek, ular madaniyatlararo va tillararo o'zaro ta'sirlarni aniqlashda muhim zamin yaratadi, natijada, inson tafakkuri va madaniyatining rivojlanishiga yangi yondashuvlar olib kiradi. Bu mavzu, o'z navbatida, tilshunoslik va sotsiologiya sohalarining integratsiyasini kuchaytirib, inson va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

### **METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI**

Antropomorfik metaforaning asosiy xususiyatlaridan biri uning zamonaviy tilshunoslikda aniqlangan konseptual asoslaridir. Bu metafora turli madaniy kontekstlarda o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Masalan, o'zbek madaniyatida, ayniqsa, xalq og'zaki ijodida, tabiat va hayvonlar insoniy sifatlar bilan bog'lanib, turli ramz va timsollarda namoyon bo'ladi. Bu jarayon yordamida insonlar o'z dunyoqarashlarini, qadriyatlarini va ijtimoiy qadriyatlarni ifoda etadilar. Bu esa o'z navbatida, madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va milliy identitetini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Antropomorfik metafora tahlilida uning ijtimoiy-ma'naviy kontekstda qanday ro'l o'ynashini o'rganish muhimdir. Ular orqali insonlarning dunyoqarashini, xulq-atvorini va ijtimoiy muhitda qanday munosabatda bo'lishlarini tushunish mumkin. Masalan, "dil" yoki "qalb" kabi insoniy xususiyatlar bilan bog'liq metaforalar yordamida jamiyatda axloqiy qadriyatlar va odob-axloq muhitining shakllanishi kuzatiladi. Shuningdek, metaforalar yordamida ijtimoiy rollar va gender tushunchalari ham ifodalanadi. Masalan, ayollar va erkaklar uchun belgilangan sifatlar va ularning o'zaro munosabatlari metaforalarga asoslangan bo'lib, bu orqali jamiyatdagi qadriyatlar va muhitning o'ziga xosligi aks etadi. Antropomorfik metaforaning sotsiolingvistik tahlili shuningdek, uning madaniyatlararo va tillararo ta'sirini ham o'rganishni taqozo etadi. Bu metaforalar yordamida turli xalqlar va tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, madaniy-madaniy uzviylik va til shakllanishi jarayonlarini aniqlash mumkin. Ularning o'ziga xos xususiyatlari va ishlatilish tarzi, shuningdek, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstlardagi roli, tilshunoslik va sotsiologiya sohalarining integratsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, antropomorfik metafora insonlarning dunyoqarashini, qadriyatlarini va ijtimoiy muhitdagi munosabatlarini anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Bu jarayon yordamida til va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlik yanada chuqurlashadi va insonlarning mintaqaviy, milliy hamda global miqyosda dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

O'zbek tilida antropomorfik metaforalar turli sohalarda namoyon bo'ladi: Tabiatga nisbatan metaforalar: "Oy hijolat bo'ldi", "Shamol g'azablandi".

Abstrakt tushunchalar bilan bog'liq: "Baxt yuzini ko'rsatdi", "Muhabbat ko'r bo'ladi".



Zamon va hodisalarga nisbatan: “Hayot kulib boqdi”, “Ta’qib vaqti gapirmaydi”. Bu ifodalar tilning emotsional boyligini, shuningdek, insonning dunyoqarashini yoritadi.

Metaforani o’rganishning boshlanishi Aristotelga borib taqaladi. Aristotel ta’rifi ancha keng, biroz mavhumroq: „Ko’chma so’z (metafora) narsaga xos bo’lmagan, jinsdan turga, yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ko’chirilgan yoki o’xshatilgan so’zdir”.

Jinsdan turga ko’chirilgan so’zlarga “Ana mening kemam turibdi” jumlasini misol bo’la oladi. Bu yerda umuman “turibdi” so’zi “langarda turibdi” xususiy ma’nosini anglatadi.

Turdan jinsga ko’chirilgan so’zlar. “Minglab shavkatli ishlarni qildi Odissey...” jumlasidagi “minglab” so’zi umuman “ko’plab”ning xususiy holati bo’lgani uchun, bu o’rinda “ko’plab” ma’nosini anglatadi.

Turdan turga ko’chirilgan so’zlar. Masalan, “Mis bilan jonni bo’shatib” va “suv zarrasini charchamas mis bilan kesib”. Birinchi holda “bo’shatib” so’zi “kesib” ma’nosida, ikkinchi holda “kesib” so’zi “bo’shatib” degan ma’noda kelmoqda.

Antropomorfik metafora bu inson va unga tegishli (xos) bo’lgan (tana a’zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora bo’lib, ko’z,oyoq, qo’l, og’iz, til, tish, quloq, yeng, yoqa kabi leksemalar ma’nosining metaforik usulda ko’chishidir. Inson a’zolari va unga bog’liq bo’lgan boshqa hodisalar keyinchalik ko’chishga sabab bo’lishi mumkin. Masalan, ko’z dastlab insonning ko’rish a’zosini, undan keyin tabiatda uchraydigan boshqa o’xshash jismlarni ifodalay boshlagan. Uzukning ko’zi, ignaning ko’zi, buloqning ko’zi va boshqalar. Misol: Oshxona oldidagi uch oyoqli stol ... (A.Obidjon) Ushbu misoldagi ko’chim oyoq so’zi orqali ifodalangan bo’lib, stol-metaforalanayotgan so’z, oyoq –metaforalanayotgan so’z, tema –muvozanatni tiklovchi yoki tirab turuvchi.

Oyoq:

- 1) insonga xos narsa;
- 2) quyida joylashgan;
- 3) tanani ko’tarib turadi;
- 4) yurish uchun xoslangan semalardan iborat.

Bu semalar qatoridagi 2-3 sema (ko’tarib turuvchi) ko’chim asosini belgilaydi. Chunki stolning oyog’i deyilganda, shu ko’tarib turuvchi taxta qismlari tushuniladi. Ana shu o’xshashlik jihatidan ko’chirilgan nomdir. Bu ko’chim ham narsa –aniq narsa ko’rinishidagi ko’chimdir. Metafora unsurlarining o’zaro munosabatiga ko’ra asos metafora, ochiq, noekspressiv, muntazam, lug’aviy metafora”.

Antropomorfik metaforalarning sotsiologik jihatlarini



a) Yosh va jins omili. Yoshlar orasida antropomorfik ifodalar ko‘proq hissiyotga asoslangan bo‘ladi: “Yuragim yig‘layapti”. Keksalar esa bunday metaforalarni dono, ramziy shaklda ishlatadilar: “Taqdir yuzini o‘girdi”.

b) Hududiy farqlar. Hududiy lahjalarda bu metaforalar o‘ziga xoslik kasb etadi. Masalan, Qashqadaryo shevasida “yer xafa bo‘ldi” degan ifoda yerning hosilsizligiga nisbatan aytiladi.

c) Ijtimoiy guruhlar va kasbga doir metaforalar. San’atkorlar, adabiyotshunoslar ko‘proq poetik antropomorfizmlardan foydalansa, texnik mutaxassislar esa bunday uslubga kamroq murojaat qiladilar. Masalan, adabiy maqolalarda “til jim turmadi” kabi ifodalar tez-tez uchraydi.

### **XULOSA**

Ushbu maqolada antropomorfik metaforaning sotsiolingvistik jihatdan o‘rganilishi bilan til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni yanada chuqurlashtiradi. Bu mavzudagi ilmiy izlanishlar nafaqat tilshunoslik va sotsiologiya sohalariga yangi nazariy va amaliy imkoniyatlar taqdim etadi, balki madaniyatlararo va tillararo o‘zaro ta’sirlarni aniqlashda samarali vosita bo‘la oladi. Kelajakda, bu yo‘nalishda yangi metodlar va texnologiyalar yordamida antropomorfik metaforalar tahlili kengaytirilishi, ularning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini yanada chuqurroq o‘rganish muhimdir. Shu bilan birga, ushbu sohada olib boriladigan izlanishlar milliy madaniyatni, tilni va jamiyatni yanada yaxshi tushunishga xizmat qiladi va inson ongining boy va murakkab dunyosini ochishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Ismoilov, A. O‘zbek tilida antropomorfik metafora va uning sotsiolingvistik tahlili. O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2020.
2. Karimov, S. Madaniy kontekstda metafora va antropomorfik elementlar. Tashkent: Fan va Tarbiya nashriyoti, 2018.
3. Yusupov, M. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan metafora turlari va funktsiyalari. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2019.
4. Rahmatullaev, X. O‘zbek tilida metafora va antropomorfik ifoda vositalari. Toshkent Davlat Universiteti, 2021.
5. Abdullayeva, M. Madaniyat va til o‘rtasidagi bog‘liqlik: antropomorfik metaforalarning tahlili. O‘zbekiston Tilshunoslik Jurnali, 2022.
6. Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс//Теория метафоры. – М., 1990. – С. 5-32
7. Складневская Г.Н. метафора в системе языка – СПб.:Наука, 1993 – 151 с.